



## USMON AZIM HIKOYALARIDA BADIYLIK VA OBRAZLILIK

**Muratliyeva Dilrabo Abdusattor qizi**

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU 2-kurs magistranti*

[dilrabomuratliyeva@gmail.com](mailto:dilrabomuratliyeva@gmail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15243900>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining yetuk vakillaridan biri bo‘lgan Usmon Azimning nasriy ijodi tahlil qilinadi. Asosan shoir sifatida tanilgan adibning hikoyalarida ham poetik ruh, badiiy teranlik va falsafiy mushohada ustuvor o‘rin tutgani ko‘rsatiladi. Maqolada Usmon Azim nasrining o‘ziga xos xususiyatlari, qahramonlarining ruhiy olami, milliylik va xalqona ruhning aks etishi, shuningdek, uning badiiy mahorati keng yoritiladi. Adibning nasriy asarlarida inson qalbi, hayot haqiqatlari va jamiyatning murakkab jarayonlari qanday talqin etilgani ochib beriladi. Maqola Usmon Azim hikoyachiligining o‘zbek nasridagi o‘rni va ahamiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Usmon Azim, o‘zbek nasri, hikoyachilik, poetik nasr, inson qalbi, falsafiy mushohada, badiiy mahorat, milliylik, ruhiy kechinmalar, hayot haqiqatlari, adabiy tahlil.

O‘zbek xalqining ma’naviy dunyosini shakllantirishda g‘oyat kuchli va samarali ta’sir ko‘rsatayotgan shaxs - Usmon Azimdir. U bugungi kunda o‘zbek adabiyotining zabardast, serqirra va qalami o‘tkir ijodkorlaridan bo‘lib, nafaqat shoir, mohir tarjimon, dramaturg, kinodramaturg va nosirdir. U yaratgan o‘nlab asarlarga kirgan she’rlar, dostonlar va hikoyalar yorqin tuyg‘ularga, ifodalarga boyligi, jo‘shqin va jozibadorligi, shiddatkor va da’vatkorligi, goh g‘amgin, goh beg‘ubor erkalovchi ohanglari bilan kitobxon qalbidan chuqur joy oladi. Shu bilan birga hayotiyligi, haqqoniyligi, o‘tkir drammatizmi va falsafiyliigi bilan o‘quvchini o‘yga toldiradi, uyqudagi tuyg‘ularini junbushga keltiradi. Usmon Azim, asosan, shoir sifatida tanilgan bo‘lsa-da, uning nasriy ijodi ham alohida e’tiborga loyiqdir. Shoirlik mahorati uning hikoya va qissalarida ham yaqqol sezilib, poetik ruh, falsafiy teranlik va badiiy mukammallik bilan sug‘orilgan. Usmon Azimning nasriy asarlari inson qalbining ichki kechinmalarini nozik tasvirlash, hayot haqiqatlarini badiiy tahlil qilish va milliy ruhni ifodalash bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada Usmon Azim nasrining o‘ziga xos xususiyatlari, qahramonlarining ruhiy olami va uning badiiy mahorati yoritiladi.

Usmon Azimning “Jodu”(2003-yil) nomli to‘plami nashrdan chiqqach, uning qanchalik serqirra ijodkor va mahoratli nosir ekanligi yana bir bor o‘z tasdig‘ini topdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu haqida Shodmonqul Salom shunday degandi: ”shoir sifatida elga tanilib, sermashaqqat ijod yo‘lining ancha-munchasini bosib o‘tgan

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



qalamkashning nasrga qo‘l urishi xayrli bo‘lar ekan. “Hayajon-u zavqdan begona, Tinch daryoday jim oqdi umrim”, deya armon qilgan iste’dodli shoirning nasriy va dramatik asarlar jamlangan bu kitobi shoir qalamidan to‘kilgan nasr namunasining qudrati nechog‘lik ulkan bo‘lishini ko‘rsatdi go‘yo”. Darhaqiqat, Usmon Azim nasri boshqa nasr namunalaridan tubdan farq qiladi. Ijodkorning hikoyalari badiiylik, obrazlilik, tasvir va ifoda yo‘sinining go‘zalligi, takrorlanmas poetik uslubi, badiiy tili xalq tiliga juda yaqinligi bilan ham ajralib turadi.

So‘z san’atining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, badiiy asar asosida inson qalbi, uning ruhiy olami turadi. Ma’lumki, hayot hodisalarining moddiy ko‘rinishlarini, tashqi shakllarini fotosuratda aks ettirish mumkin. Badiiy adabiyotda tasvirlangan inson qalbi, ruhiyati manzaralarini esa hech qanday fan-texnika vositasida aks ettirish mumkin emas, buni faqat san’atkorlargina tasvirlay oladi. Shu o‘rinda, Usmon Azim hikoyalari bilan tanishar ekanmiz, uning ham chin ma’noda haqiqiy so‘z san’atkori ekanligiga amin bo‘lamiz. Uning hikoyalari turlicha mavzularni qamrab olgan bo‘lib, zamon va makon, uslub jihatidan ham turfa xildir. Jumladan, ijodkorning baxshiyona ruhida, “Alpomish” dostonidan ta’sirlanib yozilgan “G‘oz”, “Siz bilmaydigan zamonlarda” hikoyalarida xalq og‘zaki ijodiga yaqinlik, xalqona va milliy ruh aks etgan bo‘lsa, “Birovning umri”, ayniqsa, “Sevgi”ni o‘qib chiqqach, bundagi nozik ruhiy tahlillar, shoirona tasvirlar, o‘ta jonli jo‘n dialoglarni ko‘rib, bu zamonaviy nasr -XXasr prozasi ekanligini anglash mumkin. Ular o‘rtasida bir-biriga mutlaqo yaqinlik yo‘q va mutloq boshqa-boshqa odam yozgandek bu asarlarni. Ijodkorning “Jodu” hikoyasi esa qisqa ammo chuqur falsafiy ma’noga ega ekanligi bilan kitobxonni hayratga soladi. Endi Usmon Azim hikoyalarining o‘ziga xos jihatlarini tahlillar bilan birga ko‘rib chiqamiz.

Falsafiy teranlik - uning hikoyalarida inson hayoti, taqdir va qismat haqidagi mushohadalar muhim o‘rin tutadi. Bu o‘rinda “Jodu” hikoyasida voqealar erkakning gazga choy qo‘yishidan boshlanib choy qaynagach yakunlanadi. Shu qisqa vaqt ichida hikoyaning barcha voqelari bo‘lib o‘tadi, ya’ni erkakning o‘z oilasiga xiyonat qilishi, keyin vafot etishigacha bo‘lgan voqealar bir choy qaynaydigan fursat oralig‘da sodir bo‘ladi. Choy qaynashi bu yerda ramziy detal bo‘lib, aslida umrning qanchalik qisqaligi va ko‘z ochib yumguncha o‘tishini anglatadi. Shuningdek, asarga qo‘yilgan epigraf ham hikoyaning ochib berishga va mustahkamlashga xizmat qilgan: “Umrning o‘tishi- ko‘z yumib ochguncha. (bobomning gurgundan)”.

Poetik ruh va badiiy mahorat – shoir sifatida tanilgan ijodkorning nasriy asarlarida ham poetik ruh, she’riy obrazlilik, ohangdorlik va badiiy tildan mahorat bilan

## “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



foydalanish sezilib turadi. Uning nasrida tabiat tasvirlari va inson kechinmalari o‘zaro uyg‘unlashgan, ramziy obrazlar va poetik tahlil orqali voqealar chuqurroq yoritilgan. Til ravonligi va badiiy joziba hikoyalarning ta’sirchanligini oshirgan. U tabiat tasvirlari, his-tuyg‘ularni berishda o‘ziga xos obrazlilikka murojaat qiladi. Go‘zal o‘xshatish va qiyoslashlardan foydalanadi. Masalan : “Sevgi” hikoyasidagi quyidagi jumalarga e’tibor bering: "Abdurahmon birdan bu dunyoga osmondan tushmaganligini, uning ham ildizi borligini; keng jahondagi qaysidir bir chorbog‘ning taqdir uzoqlarga o‘tqazgan niholi ekanligini payqadi”. Yoki bo‘lmasa quyidagi tabiatning ajib tasviri ham fikrimizning isbotidir: “Mashina derazasidan qorong‘ulikka tikiladi. Yulduzlari yarqirayotgan osmon tagida qirlarning bosiq yelkaları elas-elas chizilib ko‘rinadi. Yo‘lni har muyulishda kesib chiqayotgan soyda osmon parchasi bir yarq etib o‘tadi. Olisdan bir to‘p yog‘du dastasi bo‘lib tuyulgan qishloqlarning chiroqlari mashina yaqinlashgani sari sochiladi –hovlilarga ko‘chadi”.

Hayotiylik va insoniylik – uning qahramonlari oddiy insonlar bo‘lib, ularning ichki kechinmalari chuqur ochib beriladi. Qahramonning ruhiy olami, hayotga qarashlari va his-tuyg‘ulari nozik badiiy detallar bilan orqali ifodalanadi.

Insonning jamiyatdagi o‘rni, taqdirning injiqlilari va ichki ziddiyatlari, muhabbat, yo‘qotish, umid va iztirob kabi mavzular teran tahlil qilinadi. Usmon Azimning nasriy asarlari shunchaki hikoya qilish emas, balki hayot haqiqatlarini anglash va inson ruhiyatining chuqur qatlamlariga kirib borish imkonini beradi. Uning hikoyalarida hayotning achchiq haqiqatlari, insoniy munosabatlarning murakkabligi, taqdirning kutilmagan burilishlari ustuvor o‘rin tutadi.

Milliylik va xalqona ruh- Usmon Azim o‘zbek xalqining qadriyatlarini chuqur anglagan ijodkor sifatida, nasrida milliy ruh va xalqona tafakkurni ustuvor qo‘ygan. Uning “G‘oz”, “Siz bilmaydigan zamonlarda” hikoyalarida o‘zbekona tafakkur va xalqona donishmandlik ifodalangan. Xalqimizga xos mardlik, bag‘rikenglik, ochiqko‘ngillik, soddalik fazilatlari o‘z ifodasini topgan. “Birovning umri” hikoyasida esa xalqimizning milliy qadriyatlar va urf-odatlar jonli tasvirlangan. Xalqimizning milliy o‘yini-kurash, polvonlik an‘analari, Panji polvon qiyofasida o‘zligini unutmagan, mard, saxiy inson obrazi jonlanadi. “Jodu” hikoyasidagi oxirida ayolning unga xiyonat qilib, tashlab ketgan bo‘lsa ham erining ta’ziasiga farzandlarini yuborishi - qahramonlar hayoti orqali o‘zbek xalqining hayot tarzi va mentaliteti aks ettirgan.

U xalqona ruhni shunchaki tasvirlab qolmay, balki uning mohiyatini chuqur ochib berishga intiladi. Shu bois, uning hikoyalari faqat san‘at uchun emas, balki

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



o‘zbek xalqining ma’naviyati va hayot falsafasini aks ettirish uchun yozilgandek taassurot uyg‘otadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Usmon Azimning nasriy asarlari shunchaki voqea bayoni emas, balki o‘quvchini o‘ylashga, his qilishga va falsafiy mushohada yuritishga undovchi badiiy san’at namunasidir. Usmon Azim o‘zining hikoyachilik mahorati bilan o‘zbek adabiyotida alohida o‘rin egallaydi. Uning nasriy asarlari inson ruhiyatining nozik jihatlarini ochib berishi, hayot haqiqatlarini poetik tahlil qilishi va milliy qadriyatlarni yuksak badiiy darajada ifodalashi bilan ajralib turadi. Shoirlik mahorati uning nasrida ham yaqqol namoyon bo‘lib, o‘quvchini hayratga soladigan poetik nasr namunalarini yaratishga muvaffaq bo‘lgan.

Bugungi kunda ham Usmon Azimning hikoyalari o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, ularning badiiy va falsafiy chuqurligi o‘quvchilarga katta estetik zavq bag‘ishlaydi. Uning nasriy ijodi o‘zbek adabiyotining yuksak namunalaridan biri sifatida qadrlanadi va yangi avlod yozuvchilariga ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари.–Т.: Ўзбекистон, 2001.– Б.. 560
2. Азимов У. Жоду. – Т.: Шарқ, 2003. – Б. 336.
3. Азимов У. Коллаж. – Т.: Шарқ, 2018. – Б. 464.
4. Азимов У. Бир парча осмон: шеърлар, масаллар, дoston, хикоялар ва песа. – Т.: Фактор боокс, 2022. – Б. 384.